

УДК 338.467.6

*To`xtayeva Xurshida Farhodovna*

*Madaniy meros ob`ektlari*

*muammolarini o`rganish va turizmni*

*rivojlantirish ilmiy-tadqiqot*

*instituti tayanch doktoranti*

*E-mail: t.hurshidaxon@gmail.com*

## **TURISTIK XIZMATLAR BOZORIDA BANDLIKNI TARTIBGA SOLISH VA BOSHQARISH**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada turistik xizmatlar bozorida bandlik shakllari, turizm rivojining mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati, turistik xizmatlar bozorida boshqaruvni qo`llashning nazariy jihatlarini, bu borada xorijiy olimlarning fikr va mulohazalari, mamlakatimiz turistik xizmatlar ko`rsatish holatining statistik tahlili amalga oshirilgan, sohadagi muammolar o`rganilib ularga ilmiy-nazariy xulosa va takliflar keltirib o`tilgan.

**Kalit so`zlar:** bandlik, boshqaruv, ishsizlik, hunarmandchilik, turizm, tartibga solish, raqobat, tarmoq, shart-sharoit, milliy iqtisodiyot, xalqaro turizm, transport, madaniy meros, mehmonhona, xizmatlar.

### **Kirish**

Jahon xo`jaligini globallashtirish jarayonida yuz berayotgan tezkor tendensiyalarni inobatga olgan holda O`zbekiston Respublikasida xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etuvchi tarmoqlarni, xususiyl turizm industriyasini barqaror va samarali rivojlanishini ta`minlash alohida ahamiyat kasb etadi. Respublika turistik industriyasining keyingi yillardagi rivojlanishini tahlili shuni ko`rsatmoqdaki, uning boy tabiiy, madaniy va milliy salohiyatidan to`la foydalangan holda uni barqaror rivojlanishini ta`minlash, tarmoq korxonalarining raqobatdoshligini oshirish imkoniyatlari mavjud. O`zbekiston xalqaro turizm biznesida samarali faoliyat yuritish va tur mahsulotlarni jahon bozorlariga yetkazish orqali tarmoqning milliy iqtisodidagi o`rnini yanada oshirishi mumkin.

Agar turizmni rivojlantirishning iqtisodiy foydalariga nazar soladigan bo`lsak masalan, ish bilan bandlikning o`sishi, mamlakatga pul oqimining kirib kelishi, yangi turistik obyektlarning ochilishi, xizmat ko`rsatishning rivojlanishi va boshqa bir qator ijobiy tomonlarini keltirib o`tish mumkin. Bu esa, turizm faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va boshqarishni zarurligini anglatadi, ammo bunday tartibga solish sof ijtimoiy va iqtisodiy foydalarni vaqtida maksimal darajada oshirish nuqtai nazaridan muvozanatda saqlanishini talab etadi.

Turizm dunyoning ko`plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlari iqtisodiyotining birlamchi asosidir. Zamonaviy turizm bozorining asosi ham sifatli, ham miqdoriy jihatdan xodimlarning pullik ta`tillarini tashkil etadi. Oxirgi yillarda turizm ish safarlarining ahamiyati, shuningdek, pensiya yoshidagi shaxslarning sayohatlari ortib bormoqda.

Turizm faoliyatini rivojlantirishning milliy iqtisodiyotdagi o`rni va ahamiyatini bo`yicha asosiy natijalar shuni ko`rsatadiki, ko`pgina olim-tahlilchilarning fikriga ko`ra, xalqaro turizmni rivojlantirish uchun quyidagi omillar mavjud [5,6,7,8,9,]

1. Iqtisodiy o`sish va ijtimoiy taraqqiyot nafaqat biznes safarlari, balki bilim maqsadlari bilan sayohat qilish hajmini kengaytirishga olib keladi.

2. Transportning barcha turlarini takomillashtirish sayohatni arzonlashtirdi, ushbu xol aholining ko`plab qatlamlari uchun imkon yaratadi.

3. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda yollangan ishchilar va xodimlar sonining ko`payishi, ularning moddiy va madaniy darajasining ortishi ularning ma`naviy va ma`rifiy qadriyatlariga bo`lgan intilishlarini kuchaytiradi.

4. Mehnatni faoliyatining unumdorligini oshirish kuchaytirish va ishchilar uzoq muddatli ta`tillar olishlari yanada mazmunli dam olishni talab qiladi.

5. Davlatlar o'rtasida davlatlararo aloqalar va madaniy almashinuvlarning rivojlanishi ikkala mintaqada ham, hududlar ichida ham shaxslararo aloqalarni kengaytirishga olib keladi.

6. Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi telekommunikasiya sohasidagi texnologik taraqqiyotni rag'batlantirdi, turli mamlakatlar va hududlarga tashrif buyurishdan manfaatdorligini oshiradi.

7. Ko'pgina mamlakatlarda valyutani olib tashlash va chegara rasmiylashtiruvlarini soddalashtirish bo'yicha cheklolarni kamaytirish ham turizmni rivojlantirishni rag'batlantiradi.

Xalqaro miqyosda turizmni rivojlantirish uchun iqtisodiy imkoniyatlar alohida mamlakatlarda tashkiliy va iqtisodiy jarayonlarning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratdi. Ularning aksariyati uchun xalqaro turizm:

1. Valyuta tushumining eng muhim manbai;

2. To'lov balansi o'sishini rag'batlantiruvchi omil;

3. Ko'plab sohalarni rivojlantirish va diversifikasiya qilish uchun kuchli stimulyator (turizm tarmog'iga xizmat ko'rsatadigan korxonalar va alohida tarmoqlar paydo bo'ladi). Jamiyat turizm sohasini tubdan rivojlantirishning deyarli barcha sohalarida iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatadi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Y.Kyrylov va V.Yarovoylar davlat tomonidan turizm sohasida bandlikni tartibga solishda uning tamoyillarini, shuningdek boshqarish, davlat tomonidan tartibga solishning vakolatli subyektlarini aniqlash kerakligini va boshqaruvda ularning vazifalarini aniq ko'rsatish lozimligini ta'kidlashgan[1].

Y.Liu turizm sohasida bandlikni tartibga solishning birinchi bosqichida bandlikning yo'nalishlarini aniqlash va maqsadga olib boruvchi ya'ni bandlikni oshirish yo'llari rejalashtirish orqali amalga oshirishni taklif etdi. Shu orqali beshta asosiy yo'nalishni ko'rsatib berdi: tartibga solish nazorati, reklamadagi haqiqat, turizm shartnomalariga rioya qilish, turizm shartnomalarini bajarish va sayohat haqida fikr-mulohazalarni qayta ishlash[2].

D.Sunarsi turizm sohasida xodimlarni boshqaruviga e'tibor qaratdi, u eng yaxshi xizmatni har bir xodimning ro'idan ajratib bo'lmaydi. Xodim buni ish jarayoni orqali ko'rsatadi. Xodimlarning ish qobiliyatining pastligi, birgalikda ishlashga, maqsadlarga erishishda samarali ishlashga bo'lgan intilishning pastligiga sabab bo'ladi[3]deb keltirib o'tadi.

N. AL-Hazmi, T. Alkhateeb turizmda bandlikni boshqarish tushunchasini turizm tashkilotlari va turistik ob'ektlar tomonidan mamlakat ichida va tashqarisida turizm daromadlarining maksimal miqdoriga erishish uchun turistik xizmatlar harakatini rivojlantirish, yaqinlashib kelayotgan turistik bozorlarni aniqlash va ularga ta'sir o'tkazish bo'yicha amalga oshiriladigan ma'muriy-texnik ta'sir faoliyatini anglatadi[4].

A.Kuralbayev Turistik turizmda bandlikni tartibga solish, xizmatlar bozorining infratuzilmasini rivojlantirish, shuningdek cheklangan moliyalashtirish, kichik mehmonxonalar, mehmonxonalar, lagerlar va motellar tarmog'ining ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, ishlab chiqarish uchun yangi korxonalarni reabilitasiya qilish va qurish, milliy rang berish, marshrutlar tashkil qilish, ish bilan bandlikni oshirish va ishsizlikni kamaytirishga qaratilsagina amalda natijalarga erishish mumkinligini keltirib o'tadi[5].

A.N. Schmeleva 2010-2019 yillar davomida ushbu mavzu bo'yicha Rossiya dissertasiya tadqiqotlarining qiyosiy sharhini taqdim etadi. Uning fikricha turizmda boshqaruvni qo'llash xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishiga olib keladi[6].

Z.D. Adilova turizm mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish bilan bir xil emas. Turizmning o'ziga xos xususiyatlari ko'pincha innovatsiyalar orqali ya'ni xizmatlar turini kengaytirish yo'li orqali amalga oshiriladi[7].

P.Z. Xashimov turizmning mehnat bozori—bu mehnat resurslaridan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy shakli bo'lib, unda xodimning ishchi kuchi tovar sifatida ko'rib chiqiladi, ya'ni bozor qonunlariga muvofiq sotiladi va sotib olinadi va mehnat tashuvchisi xodim sifatida xizmat ko'rsatadi[8].

K.Shodiev xorijiy mamlakatlarning yirik turistik kompaniyalarining strategik boshqarish va sheriklar bilan bo'ladigan munosabatlarini o'rganish turistik biznesni muammoli komplekslarga ajratish va tarmoqli usulni qo'llashni taqozo etadi[9] deb ta'kidlagan.

### Tadqiqot metodologiyasi

Turizm faoliyatini rivojlantirishning milliy iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini o'rganishda quyidagi tadqiqot metodlari, yani tizimli yondashuv, mavhum-mantiqiy tahlil, iqtisodiy tahlil va sintez, statistik ma'lumotlarning qiyosiy tahlili, iqtisodiy guruhlar usuli kabi umumiy ilmiy metodlardan foydalanilgan holda turizm sohasida bandlik muammolari o'rganildi. Turizm iqtisodiyotning juda ko'p qirrali rivojlangan tarmog'i bo'lib, u ba'zi mamlakatlardagi daromadning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, ularning iqtisodiyotiga va jahon hamkorligini rivojlantirishga ta'sir qilishi tadqiq etildi.


### Tahlil va natijalar

Iqtisodiy faoliyat sohasi sifatida turizm bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Turizm inson, umuman jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi va mikro va makroiqtisodiy darajalarda daromad manbai hisoblanadi. Turizm qo'shimcha ish o'rinlari yaratishning asosiy omillaridan biri bo'lib, yo'l va mehmonxona qurilishi rivojini tezlashtiradi, barcha turdagi transport vositalari faoliyatlarini rag'batlantiradi, xalq hunarmandchiligi va mintaqalar va mamlakatlarning milliy madaniyatini saqlab qolishga xizmat qiladi.

O'z navbatida, turizmda bandlik darajasiga turli omillar ta'sir ko'rsatadi: demografik, tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy, diniy va siyosiy-huquqiy. Ular shuni ko'rsatmoqdaki, turizm dunyoning ko'plab mamlakatlarida eng jadal rivojlanayotgan tarmoq bo'lib, uning jahon iqtisodiyotidagi roli tobora ortib bormoqda. Xalqaro turizm aholi bandligiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Turizm sanoati mehnat talab qiladigan jarayondir, shuning uchun u asosan malakasiz ishchilar bilan band. Biroq, bu yuqori malakali mehnat turizm sohasida qo'llanilmasligini anglatmaydi. Ushbu sohada geografik jihatdan yangi ish o'rinlari iqtisodiyotning boshqa rivojlanayotgan tarmoqlariga qaraganda kengroq tarqalmoqda. Ilmiy-texnik taraqqiyot, aholining hayot sifatini oshirish, bo'sh vaqt, dam olish, iqtisodiy va siyosiy barqarorlik va boshqa bir qator omillar dunyoda turizmni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatmoqda.

2022 - yilning yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan xorijiy fuqarolar soni 609,6 ming nafarni tashkil etdi. MDH davlatlaridan 578,6 ming kishi kelgan, bu ularning umumiy sonining 94,9 foizini, boshqa xorijiy davlatlardan 31,0 ming kishini (ularning umumiy sonining 5,1 foizini) tashkil etdi[10].


Toshkentdagi mehmonxona va hostellar bandligi mart oyining so'nggi kunlarida 83,6 foizni, respublikada esa 70,8 foizni tashkil etdi. Turizm va madaniy meros vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, ushbu raqamlar turizm sohasining tiklanishidan dalolat beradi.



1-rasm. Turistik tashkilotlar va turizm sohasida bandlik ko'rsatkichlari[10]

Turfirm va turistik tashkilotlar tomonidan 78,2 ming dona tur sotilgan. Ulardan 18,1 mingtasi kichik korxon va mikrofirmalar tomonidan sotilgan. Sotilgan turlarning asosiy qismi – 75,3 % i Toshkent shahriga to‘g‘ri keldi[11].

“O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil” dasturining amalga oshirilishi mamlakatimizda sayyohlik madaniyatining rivojlanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Mamlakatda ichki sayyohlarning umumiy soni 2016-yildagi 8,8 milliondan 2019-yilda 14,7 millionga, 2021-yilda esa 15 milliondan oshgan.



## 2-rasm. Turistik maskanlar soni[11]

Jamoaviy joylashtirish vositalari mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari (1156 ta), ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari (494 ta), individual joylashtirish vositalari (189 ta) va boshqa joylashtirish vositalaridan (103 ta) iborat[11].

So‘nggi 4 yil ichida O‘zbekistonda 833 ta yangi mehmonxonalar: yirik, o‘rta va kichik mehmonxonalar foydalanishga topshirildi. Joylashtirish fondlarining umumiy soni 1442 taga yetdi. Bunda xonalar soni – 33,4 ming donani tashkil etayotgan bo‘lsa, undagi o‘rinlar – 71,2 taga yetkazildi. Ayni paytda O‘zbekistonda yuzlab yangi mehmonxona loyihalari barpo etilgan

Mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari tarkibiga mehmonxona, motel, pansionat (mehmonxona tipidagi) va qisqa muddat yashash uchun mo‘ljallangan boshqa joylar kiradi. Mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalaridagi nomerlar 25,6 mingtani, joylar 50,4 mingtani tashkil etgan. Joylashtirilgan shaxslar 702,8 ming kishini tashkil etgan bo‘lib, ularning 79,7 % i O‘zbekiston fuqarolari, 8,2 % MDH davlatlari fuqarolari va qolganlari (12,1 %) uzoq xorijiy davlat fuqarolaridan iborat. Tunab qolishlar soni 1758,9 mingtani tashkil etdi[11].

2022 yil mart oyida O‘zbekistonda barcha toifadagi mehmonxonalar va hostellarni o‘rtacha band qilish bo‘yicha statistik ma‘lumotlar tahlili ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rsatdi.

2022 yil 28-30 mart kunlari – uch kunlik davrdagi yuklama respublika bo‘yicha 70,8 foizdan ortiq, Toshkent shahrida 83,6 foiz, Samarqandda 62,3 foiz, Qoraqalpog‘istonda 93,9 foiz, Xorazmda 56,3 foiz, Buxoroda 46 foizni tashkil etdi. Bu juda yaxshi ko‘rsatkichlar bo‘lib, turizm industriyasining o‘sishidan, mehmonxona biznesi uchun esa rentabellikning tez tiklanishidan darak beradi[11].

2017-yilda mehmonxonalarning bandlik darajasi 39,3 foizni, 2019-yilda – 53,1 foizni, pandemiyaning o'tkir davrida – 22,1 foizni, 2022 yili bandlik ko'rsatkichi 36,3 foizni tashkil etgan edi.

2019-2022 yillarda O'zbekistonga kelayotgan sayyohlar sonining qiyosiy tahlili sezilarli tiklanish dinamikasini ko'rsatmoqda, garchi 2022 yilda u atigi 15 foizga ortda qolgan bo'lsa-da, bu yerda xonalar soni 2019 yilga nisbatan 26147 o'rindan 33411 taginolarida istiqomat qilgan O'zbekiston mehmonlari orasida mahalliy sayyohlar va mamlakat fuqarolaridan tashqari rossiyaliklar – 23,4 foiz, qozog'istonliklar – 18,9 foiz, tojikistonliklar – 14,4 foiz, turkiyaliklar – 7,7 foizni tashkil etdi. Mehmonxonalarda yashovchi barcha xorijliklar: qirg'izistonliklar – 6,3 foiz, belarusliklar – 4,6 foiz, xitoyliklar – 3,2 foiz, fransiyaliklar – 1,7 foiz. Bularning hammasi bandlikni oshirishga, xizmatlar sohasini rivojlanishiga asos bo'ladi[10]. Turizmda bandlikni ta'minlashni oshirish maqsadida, sohaga malakali mutaxassislarni jalb etish lozim (1-jadval).

### 1-jadval

#### Turizm tarmoqlaridagi bandlik (yuridik shaxslardagi ishlovchilar soni) [11]

T/r	Turizm tarmoqlari	2019	2020	2021
1	Tashrif buyuruvchilarni joylashtirish bo'yicha xizmatlar	54 536	49 805	51 524
2	Umumiy ovqatlanish korxonalarini xizmatlari	66 646	54 101	67 946
3	Temir yo'l yo'lovchi transporti xizmatlari	5 273	4 149	5 117
4	Quruqlikdagi yo'lovchi transporti xizmatlari	70 919	50 206	48 166
5	Havo yo'li yo'lovchi transporti xizmatlari	2 007	1 592	2 021
6	Transport vositalarini ijaraga berish xizmatlari	1 788	1 225	1 364
7	Turizm agentliklari xizmatlari va bron qilish bo'yicha boshqa xizmatlar	3 192	2 525	2 410
8	Madaniyat sohasidagi xizmatlar	11 042	11 545	12 492
9	Sport va dam olish bo'yicha xizmatlari	16 028	15 666	17 013
	<b>Jami:</b>	<b>231 431</b>	<b>190 814</b>	<b>208 053</b>

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibiki, turizm sohasida bandlik darajasi pandemiya sababli salbiy natijalarni ko'rsatmoqda va 2021-yilga kelib 208 053 kishini tashkil etmoqda, bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan hali hamon ko'tarilmaganligini anglatadi. Demak sohada bandlikni oshirish maqsadida malakali mutaxassislarni tayyorlash yo'li orqali turistlarni jalb etish zarur. Yangi turistik marshrutlar, turistik zonalarini ochish nafaqat tashqi balki ichki turizmni ham rivojlantiradi bu esa bandlikni oshirishga hizmat qiladi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan, turizmda bandlikni boshqaruvi quyidagilarni anglatadi:

1) mahsulot ishlab chiqarish, almashish va tarqatish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarning muayyan to'plami sifatida;

2) ma'lum bir ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyatning ayrim turlarini o'z ichiga olgan ma'lum bir mamlakatning milliy iqtisodiy majmuasini;

3) turizmni mamlakat yoki mintaqa iqtisodiyotining sohasi (turizm iqtisodiyoti) sifatida o'rganadigan fan taraqqiyotini;

4) turistik mahsulotni ishlab chiqarish, uni iste'mol qilish, tarqatish va almashish sohalaridagi xatti-harakatlarni o'rganuvchi ijtimoiy fanni. Iqtisodchilar ushbu sohalarida sodir bo'layotgan jarayonlarni tahlil qilishadi, ularning shaxslar, tashkilotlar va umuman jamiyat uchun qanday oqibatlariga olib kelishini taxmin qilishadi;

5) odamlarning turistik xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, almashish va iste'mol qilishda oila, firma va umuman jamiyatning cheklangan resurslari bilan inson ehtiyojlarini qondirish uchun turistik iqtisodiy tizimning barcha darajalarida odamlarning iqtisodiy subyektlar sifatidagi xatti-harakatlarini o'rganadigan zamonaviy iqtisodiy nazariya sifatida qarash talab etiladi.

Tadqiqotlar natijasida aytish mumkinki zamonaviy turizm iqtisodiy hodisa sifatida[9]:

1. Sanoat shakliga ega;
2. To'planishi va tashib bo'lmaydigan turistik mahsulot va xizmatlar ko'rinishidagi harakatlar;
3. Yangi ish o'rinlari yaratadi va ko'pincha yangi sohalarni rivojlantirishda hunarmandchilik va milliy iqtisodiyotning jadal rivojlanishi uchun katalizator hisoblanadi;
4. Milliy daromadlarning o'sishi, bandlik va mahalliy infratuzilmaning rivojlanishi va mahalliy aholi turmush darajasining o'sishi multiplikatori;
5. Yuqori samaradorlik darajasi va investisiyalarning tez qaytarilishi bilan tavsiflanadi;
6. Tabiat va madaniy merosni himoya qilishning samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi, chunki uning tarkibiy qismi uning resurs bazasini tashkil etadi;
7. Iqtisodiyotning deyarli barcha sohalariga va inson faoliyatining turlariga mos keladi, chunki ularning farqlanishi va o'ziga xosligi, dam olish muhitining potentsialidagi farqni keltirib chiqaradi, odamlarning yashash joylari va bilimlarini o'zgartirishga bo'lgan ehtiyojini keltirib chiqaradi.

Turizmda bandlikni oshirish maqsadida turistik xizmatlar tarkibini va sifatini kengaytirish, turistik servis darajasini oshirish, korxonalar infrastrukturasi imkoniyatlarining kengaytirish, turistik biznes ob'ektlarining ekologik xavfsizligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi [12]. Turizm boshqaruvida davlat xususiy sherikchiligi ham ahamiyatlidir. Davlat xususiy sherikchiligini tashkil etishda hududdagi hamma maqsadli dasturlar haqida axborot to'plash va uni kompleks tahlil etish maqsadga muvofiq va bu jarayonni tizimli boshqarish mexanizmini topishda axborot oqimini chuqur o'rganish kerak.

Hududiy rivojlanish dasturlarini rejalashtirishda turistik mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish, joriy va istiqbolda Klaster modelini yaratishga alohida e'tibor qaratish lozim. Bozor iqtisodiyotida bu xizmatlar sohasini tartiblashtirishda ahamiyati katta. Klasterlashtirishda soha rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Klaster doirasida bozor talablariga moslashish, hududning ustuvor sohalarini rivojlantirish, turistik korxonalarda innovatsiyalarni yaratish va joriy etishga sharoit yaratiladi.

Turizm sohasi boshqaruvida Klasterga kiruvchi korxonalar va tashkilotlarni to'rt turga ajratish mumkin[13]:

- Turmahsulotni yaratuvchilar: turistik tashkilotlar – turoperatorlar, mehmonxonalar, ovqatlantirish va transport tashkilotlari
- qo'shimcha xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashgan tashkilotlar: masalan, ekskursiya byurolari, sport va tibbiy xizmat ko'rsatuvchi hamda ta'lim tashkilotlari.
- Jamoat tashkilotlari (nodavlat va notijorat), sohaga tegishli insonlarni birlashtiradi.
- Turizmga bevosita va bilvosita aloqador innovatsion infrastruktura subyektlari.

Turistik korxonalarini tartibga solishda: iste'molchilar bilan uzviy aloqasini baholash, turistik xizmatlar sifatining auditori va monitoring xizmatini joriy etish uslubiyatini shakllantirish kerak. Turizm sohasining rivojini ta'minlashning marketing strategiyasi, iqtisodiy samarasini oshirishga qaratilgan tavsiyalar va respublika turizm industriyasining istiqboldagi taraqqiyoti 2030 yilgacha prognoz ko'rsatkichlaridan foydalanish zarur.

O'zbekistonda turistik xizmatlar bozori infratuzilmasining tashkiliy-iqtisodiy va tashkiliy boshqaruv tuzilmalari quyidagilardan iborat. Milliy darajada davlat boshqaruv tuzilmalari[10]:

- O'zbekiston Respublikasi madaniyat va turizm vazirligi: ushbu vazirlik davlatning subyekti sifatida turistik xizmatlar bozoridagi siyosatni amalga oshiradi;
- O'zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirligi;

- O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va bojxona qo‘mitasi: xorijiy turistlarni kirib kelishining viza tartibini nazorat qiladi;
- “Turizm xizmatlarini sertifikatlashtirish markazi” DUK: ushbu korxonaning faoliyati turistik xizmatlar sifati va xavfsizligini oshirishga yo‘naltirilgan yangi milliy davlat standartlarini ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirishdan iborat;
- O‘zbekiston savdo-sanoat palatasi: ushbu tashkilot turizm sohasida tadbirkorlik va kurort-rekreasion va mehmonxona xo‘jaliklarini rivojlantirish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiradi;
- davlat o‘quv muassasalari: turizm sohasida kadrlarni o‘qitish, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish.

### **Xulosa va takliflar**

Yuqoridagilarni e‘tiborga olgan holda, bizning fikrimizcha, turistik bozorda bandlikni ta‘minlash va samarali boshqaruvni olib borishda quyidagi funksiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir[13]:

- turistik tovarlar sotuvchilari va xaridorlari o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni ta‘minlash hamda turizm sohasida bozor munosabatlarining barcha ishtirokchilari manfaatlarini hisobga olish;
- turizm bozorida raqobat sharoitiga muvofiqlikda bozor munosabatlari subyektlarini o‘z-o‘zini tartibga solish yo‘li bilan turistik tovar aylanishini tartibga solish;
- turizm bozori subyektlari (turistik xizmatlarni ishlab chiqaruvchilar, vositachilar, sotuvchilar, turistlar) o‘rtasida amalga oshiriladigan barcha operatsiyalarni tashkiliy-huquqiy jihatdan ta‘minlash;
- alohida sub‘yektlar va faoliyat ko‘rinishlari ixtisoslashuvining rivojlanishi hisobiga turizm bozori qatnashchilari faoliyati samaradorligini oshirish;
- turizm bozorida tovarlar harakatini tashkiliy jihatdan qo‘llab-quvvatlash va uni davlat tomonidan tartibga solish funksiyalarini bajarilishini ta‘minlash;
- davlat tomonidan turizm bozori subyektlarining iqtisodiy faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish;
- bozor infratuzilmasi ko‘magi bilan axborot, marketing, innovasion, konsalting va boshqa xizmatlarni ko‘rsatish.
- turizm sohasida xalqaro aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, xalqaro turistik tashkilotlar bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yish, turizm sohasiga xorijiy investitsiyalar va xalqaro kreditlarni jalb qilish bo‘yicha keng chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish;
- yangi mehmonxonalar, kempinglar, turbazalar, otellar, motellar qurish va mavjudlarini ta‘mirlash hamda zamonaviylashtirish hisobiga turizmning xalqaro talablarga javob bera oladigan moddiy-texnika bazasi va zamonaviy xalqaro turizm infratuzilmasini barpo etish va ulardan samarali foydalanish;
- aeroportlarda, temiryo‘l vokzallarida, avtobus stansiyalarida xalqaro terminallar qurish, ularni ta‘mirlash va kengaytirish, shuningdek, barcha turistlarni qabul qilish markazlarida zamonaviy kommunikatsiya tizimlarini barpo etish;
- xalq amaliy san‘ati, hunarmandchilik, ustaxonalar, an‘anaviy milliy buyumlar, suvenirlar va turistlar tomonidan talab yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash;
- respublikamizning tabiiy, iqtisodiy va tarixiy salohiyatidan kelib chiqqan holda turizmning turli shakllari — ekskursiya va o‘rganish turizmi, arxeologik turizm, rekreasion turizm shakllarini rivojlantirish;
- turizm sohasini axborot bilan ta‘minlash va turistik biznesda eng yangi texnologiyalardan foydalanish asosida respublikamizning turistik imkoniyatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni internet saytlari orqali xorijiy mamlakatlarga tarqatishdir.

Ushbu keltirilgan taklif va xulosalar natijasida turizm sohasi yana rivojlanadi, aholining kattagina qismi ish bilan band bo‘ladi, ishsizlik darajasi kamayadi, aholi farovonligi yanada oshadi, mamlakatda kambag‘allikka qarshi kurashishda yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yi**

1. Kyrlov, Y., & Yarovoy, V. (2018). STATE REGULATION AND SUPPORT OF TOURISM SERVICES IN THE RURAL REGIONS IN ACCORDANCE WITH EUROPEAN REQUIREMENTS. *Baltic Journal of Economic Studies*, 4(4), 188-193. <https://doi.org/10.30525/2256-0742/2018-4-4-188-193>
2. Liu Y., Yao Y., Fan D. X. F. Evaluating tourism market regulation from tourists' perspective: Scale development and validation // *Journal of Travel Research*. – 2020. – T. 59. – №. 6. – С. 975-992.
3. Sunarsi D. et al. The Influence of Motivation and Work Discipline on Employee Performance at the Yogyakarta Tourism Service // *Proceeding The First International Conference on Government Education Management and Tourism*. – 2021. – T. 1. – №. 1. – С. 1-7.
4. AL-Hazmi N., Alkhateeb T. Obstacles to implementing total quality management in Saudi Arabia marketing tourism Services // *Management Science Letters*. – 2020. – T. 10. – №. 3. – С. 507-514.
5. Kuralbayev A., Myrzaliev B., Sevim B. Organizational and economic problems in the management of the spiritual-Historical development of tourism in South Kazakhstan Region // *International Review of Management and Marketing*. – 2016. – T. 6. – №. 2. – С. 219-226.
6. Schmeleva A. N., GUGELEV A. V., Umnova M. G. Development of the Methodology of Quality Evaluation and Quality Improvement of Tourist Services in Territorial Subjects of the Russian Federation // *Quality-Access to Success*. – 2017. – T. 18. – №. 156.
7. Adilova Z. D., Shadieva Z. T., Umarova Z. T. Development perspectives of tourism market in Uzbekistan // *Beiträge zur Entwicklung in Usbekistan und China: Wissenschaftliche Schriftenreihe*. – 2012. – T. 5. – С. 82.
8. Хашимов Пазлиддин Зухурович, Ким Татьяна Валерьевна Аҳоли бандлигини таъминлашда туризм соҳасининг роли // *Экономика и финансы (Узбекистан)*. 2014. №10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/a-oli-bandligini-taminlashda-turizm-so-asining-rol-i> (дата обращения: 16.06.2023).
9. Камолидин Шодиев Туристтик соҳада кластер ва давлат хусусий шерикчилиги асосида тadbirkorlikni rivozhlantirish // *Scientific progress*. 2021. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/turistik-so-ada-klaster-va-davlat-hususiy-sherikchiligi-asosida-tadbirkorlikni-rivozhlantirish> (дата обращения: 16.06.2023).
10. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/21043-o-zbekistonga-turizm-maqsadlarda-kelgan-chet-el-fuqarolari>
11. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/10164-2020-yilda-o-zbekiston-respublikasida-turizm>
12. Shodiyev, K. (2021). Contribution of ict to the tourism sector development in Uzbekistan. *Academicia: an international multidisciplinary research journal*, 11(2), 457-461.
13. Muallif tomonidan ma'lumotlar tahlili va ilmiy izlanishlar natijasida ishlab chiqildi.